

MERONIMLARNING ELEKTRON KORPUSLARDAGI TAQDIMOTI VA TAHLILI

Mustafaeva Sojida Ulashevna

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchi

e-mail: sojidamustafayeva557@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16910968>

Annotatsiya: Ushbu tezisdá meronimlarning elektron korpuslardagi taqdimoti va ularning lingvistik tahlili masalalari yoritiladi. Tadqiqotda meronimik munosabatlarning leksik-semantik xususiyatlari, ularning turli kontekstlarda qo'llanilishi hamda korpus materiallarida qayd etilish darajasi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ingliz va o'zbek tillari korpuslari asosida meronimlarning ifodalanishidagi umumiy va farqli jihatlar aniqlanadi. Elektron korpuslardan foydalanish meronimlarning qo'llanish doirasi va semantik imkoniyatlarini chuqurroq tahlil qilishga yordam beradi. Natijada, meronimik munosabatlarning leksikografik va tarjimashunoslikdagi ahamiyati ham asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: meronim, korpus lingvistika, elektron korpus, leksik-semantik tahlil, meronimik munosabat, ingliz tili, o'zbek tili, leksikografiya, tarjimashunoslik.

Kirish qism

Hozirgi davr lingvistik tadqiqotlarida korpus lingvistika alohida ahamiyat kasb etib, til birliklarini keng ko'lamda o'rganish imkonini bermoqda. Korpus materiallari asosida til birliklarining qo'llanish xususiyatlari, ularning semantik va funksional jihatlarini tahlil qilinadi. Meronimlar ham til tizimining muhim bo'g'ini sifatida korpus asosida tadqiq etilishi zarur bo'lgan hodisalardan biridir. Chunki meronimik munosabatlar predmet va hodisalarning tarkibiy qismlarini ifodalash orqali leksik tizimning tuzilishini ochib beradi. Ushbu tadqiqotda meronimlarning elektron korpuslarda taqdimoti va ularning lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Bunda birinchi va ikkinchi bandlarda meronimlarning ingliz va o'zbek tillarda lug'atlar va korpuslarda berilish masalalarini analitik tahlil etish masalalari va uchinchi banda esa chog'ishtirilayotgan tillarda meronimik so'zlarning leksikografik talqinlarda ifodalanish holatlarini tavsiflanish bilan belgilanadi. Til lug'ati bu shunchaki xaotik tartibli to'plam emas balki tartiblangan - uning tarkibiy qismlari ham leksik ham semantik aloqalar bilan bog'lanadigan sistem sifatida ifodalanadigan tizim: giponim-giperonim, meronimik, holonim, graduonimik, partonomik, sinonimik, antonomik, polisemantik va boshqalar. Hozirgi davr tilshunosligining barcha sohaları, ayniqsa leksikografik olamida kompyuter lingvistik bazasini shakllantirish, bu esa lug'at -leksikografik tarkibini yangi leksema ma'no munosabatlarining kengayishi va rivojlanishi negizida ro'y beradi. Chunki I.R.Galperin yozganidek, "leksikografiya hamma narsani o'z ichiga olishi kerak, u o'z qudratini, qadrini va nutqda qo'llanishi qobiliyatini yo'qotmagan tilda yashaydi, shuningdek, so'ngi paytlarda tug'ilgan, hayotiy va barqaror bo'lib chiqqan barcha yangi narsalarni aks ettira oladi"¹². J.Miller, D.A.Kruz va M.V.Nikitinlar¹³ meronimlarning lug'aviy ma'no jihatlarini bilan alohida o'rganib, ularning leksikografik tizimga kiritish lozimligini birinchilardan bo'lib aytib o'tadilar. Ammo hanuzgacha olimlar o'rtasida "butun-qism" munosabatlarning til leksikaviy tizimidagi tarqalish o'rnini ochiq qoldirmoqda. D.A.Kruz ma'no munosabatlari haqida quyidagicha fikr beradi: "Ma'no munosabatlarining muhimligi bu uning yaxshilanishi agarda o'zaro ichki intuitiv sezgirlikka mos keladigan bo'lsa, yoki tushuncha oson leksikallashtirilsa yoki og'zaki nutqda ifodalansa. Albatta bu tushuncha oddiy nutq so'zlashuvchilari uchun tushunish yoki anglash qiyin, buni soddalashtiradigan

bo'lsak ...is a kind of, ...is a type of, masalan, **dog** va **animal** bu eng oson yuzaga keluvchi misollar bo'lib, "*a dog is a type of animal*" ya'ni qismning turi bu **it**, uning butuni **hayvon**. Meronimlar gaplar o'rtasida oddiy mantiqiy izohlanishga ega emas ammo giponimlarda mavjud. Uning lug'aviy formulalarda belgilanish holati **Y** ning meronimi **X**, **A** butunlikni o'z ichiga oladi, lekin **A X** ning tarkibidagi elementlarni o'z ichiga oladi, ammo **X A** ning tarkibi emas"¹⁴.

Izoh: "*Leg*" ("*oyoq*") tana a'zolarinig **X** ning holonimi, ammo "*thigh*", "*knee*", "*lower leg*", "*ankle*", "*foot*" **Y** ning meronimlari, **A** ning leksema iyerarxiyasi. Tabiiyki, "*leg*" tana qismi o'zining asosiy tana qism (*body*) va u ichki mustaqil holonimlarga *head; arm; leg* bo'laklarga bo'linadi, natijada savol tug'iladi, agarda ular o'zaro semantik munosabatli bog'lanishmi yoki leksikaviy sinfnig umumiy iyerarxiya ostida birikishmi? Shu o'rinda biz ingliz olimi J.Layonz qism-butunlik haqida fikr bildirar ekan u shunday mulohaza yuritadi: "*qism-butun*"li munosabatlar bu giponimik munosabatlardan qisman ozroq farq qiladi va u xuddi giponimiyaga o'xshab tranzitiv bo'la oladi qaysiki ko'p tilshunoslar bu fikrimga qarshi bo'lsalarda. Meronimlarning jahon lug'atshunoslik talqinlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, dastlab meronimlar lug'atlarda quyidagicha tavsiflangan: "*Meronymy [mero-^ ('mereu) 'part', 'fraction', occurring in various scientific and technical terms; sometimes opposed to holon*" ¹⁵. Demak, meronim termini dastlab – mero shaklida qism, ulush, bo'lak ma'nosida turli texnikaviy terminlarga nisbatan ishlatilgan va holonimga teskari qo'yilgan; "*Merology*" [from Gr. μέρο-ς part, member + Logy.] bu termin dastlab anatomiya sohasining tarmog'idagi elementar to'qimalar va tana suyuqliklari uchun ishlatilgan, (Syd. Soc. Lex. 1890)"¹⁶ Bundan ko'rinadiki, *mero* va *merology* terminlari keyinchalik davr taraqqiyoti evaziga lingvistika dunyosiga kirib kelib, meronimik iyerarxiya doirasini yaratish uchun zamini bo'ldi desak adashmaymiz va hozirgi kunda meronimlar haqida quyidagi jahon lug'atshunoslik resurs tizimlari ma'lumot beruvchi baza lug'at turlari hisoblanadi: 1) Oxford English Dictionary (Oksford inglizcha lug'ati) (OED) - meronimik munosabatlarga tegishli so'zlar ro'yxati asosan otlik shakllarga mos xususiyatlar; 2) Merriam-Webster Dictionary (Merriam-Vebster lug'ati) - turli izohli ma'nolari va izohlarni o'z ichiga olgan bo'lib, "*meronym*" - "*mero*" shaklida uchraydi; 3) Collins English Dictionary: complete and unabridged (internet archive) (Kollinz inglizcha lug'ati) - Cambridge English Dictionary (Kembrij ingliz Dictionary); 4) Longman Dictionary of Contemporary English (Longman zamonaviy ingliz lug'ati); 5) Thesaurus.com (Tezarus) sinonim, antonym va boshqa so'z munosabatlarining murakkab onlayn tezarusi hisoblanadi. 145.800 dan ortiq eng top manbalarning tezarusini o'z ichiga olgan: *Collins Thesaurus of the English Language - Complete and unabridged, The American heritage Roget's Thesaurus va Word Net. Tezarus. Meronim Tezarus Vikipediya* lug'atida quyidagicha izohlanadi:


O'zbek tili lug'atlarida meronimlar (qism - butun munosabatlari) bo'yicha maxsus lug'atlar mavjud emas, lekin ayrim lingvistik manbalarda va izohli lug'atlarda ushbu tushuncha ko'rinishda uchrashi mumkin. Quyidagi manbalarda topishimiz mumkin: 1) O'zbek tili izohli lug'atlarda – O'zbek tilining xalqona izohli lug'ati 35000dan ortiq so'z ma'nolari va iboralari berilgan, shu jumladan "qism va butun" so'zlarining ma'nolari tushuntirilgan, lekin meronim so'z/termin sifatida alohida berilmagan. Ammo qism va butunlik so'zlari meronimik ma'no munosabatlarini uning butun yoki qism ekanligi aniqlab beradi, masalan "qism" so'zining to'rtta ma'nolari berilgan: 1) butunning tarkibiy qismi yoki uzvi, ulushi; 2) bir ish, majlis, asar va shu kabilarning ma'lum darajada mustaqillikka ega bo'lgan alohida bo'lagi; qismi; 3)

mashina, mexanizm, inshoot va shu kabilarni tashkil qilgan ob'ektlarning qismi/ har bir detali sifatida 4) harb. Qurolli kuchlar tarkibidagi alohida bo'linma, tarkib yoki birikma¹⁷ 2) O'zbek tili sinonim lug'atlarida ham aynan O'zbek tili izohli lug'ati kabi - ba'zi lug'atlar ma'lum bir butunning qismlarini sinonim yoki antonim bilan bog'liq holda keltiradi. Masalan: "bo'lak" so'ziga murojaat qilganimizda bu so'zning o'zi beshta ma'no turida ishlatilishi berilgan ammo shulardan uchta ma'no xususiyatlari meronimik munosabatlarga teng: 1) butunning bir qismi; qism, parcha, kesim ("Engashib, yashikdan *ikki bo'lak ko'mir* olib soldi. S.Karomatov, Oltinqum (tabiiy resurslar → qattiq jismlar → oltin, ko'mir, po'lat, temir, mis) 2) bir qismi, donasi, o'rami: Sobir *ushoq bo'lagini* bog'dagi qushlarga tashladi. 3) Boshqalardan farq qiladigan; boshqa, o'zga, boshqacha (Uning *qizil yanog'i* lovullab yo'nar edi. Yuz - qismi ma'nosida)¹⁸. 3) O'zbek tilining izohli lug'atida (80.000 mingdan ortiq so'z va so'z birikma 5 jildli) tana qismini "bosh" so'ziga quyidagicha tavsif berilgan: Bosh - tananing bo'yindan yuqorigi, oldingi(odamda, hayvonlarda) qismi, kalla, bosh shakli; "bo'yin" odam va umurtqali hayvonlar gavdasining bosh bilan tanani biriktiruvchi qismi; "burda" so'zi qism ma'nosiga teng bo'lin, kesilgan, bo'lingan kichik parcha, bo'lak (non, go'sht va boshqalar (bir burda non); "parcha" qism, bo'lak, burda; mato bo'lagi, ipak mato turi: Butundan kesib, qirqib, kesib, sindirib olingan yoki o'zi ajralgan qismi sifatida ta'rif beriladi; "tarmoq"¹⁹ so'zi uchta ma'no turini ifodalab kelsada har uchasi ham asosiy butunlikning qismi, tarmog'i, shahobchasi vazifasini o'tagan, masalan, asosiy yo'l tarmog'i; asosiy tashkilot tarmog'i/ shahobchasi; fan, texnika sohaviy tarmoq shahobchalari. Meronimik so'zlarni va uning iyerarxik tipologiyasini jahon lingvistik korpuslardan semantik va sintaktik ma'no xususiyatlari orqali qidirib topishimiz mumkin ekan. Lug'atlarda sof meronimlarni uchratish qiyin, ular asosan holonimning meronimi shaklida, masalan, "*vehicle*"- "*transport*" "*car*" - "*avtomobil/mashina*"ning *holonimi* bo'lsa "*engine*"(*dvigatel*), "*wheel*"(*balon/g'ildirak*), "*door*"(*eshik*), "*seat*"(*o'rindiq*) lar "*car*" (*mashina*)ning meronimlari hisoblanadi. D.A.Kruz "leksikonlarni strukturalashtirishda semantik munosabatlarning ahamiyat asosiy baza"²⁰; N.Kuzmenka: "meronim qismni ifodalasa, holonim meronimning antonimi qaysiki uning uchinchi munosabatli shakli"²¹. Ingliz tilida meronimik so'zlarning korpuslarda ifodalanish holatlarini tushuntirib o'tdik ya'ni ular 1. Corpus Analysis: "*The door is part of the house*"; 2. Wordnet and Ontologies: "*wheel*" is a meronym of "*car*."; 3. Co-occurrence Patterns: "*hand*" are appeared with "*arm*" yoki "*leaf*" "*tree*" yaqin ma'noda; 4. Lexical Meaning: "*semantic and syntactic structures are identified*" 5. Semantic Role Labelling (SRL): "*identifying part-whole relationships in a specific syntactic structure*" 6. Collocational Analysis: "*leg*" often collocations of "*body*", "*table*", "*chair*" indicationgf a part-whole relationship in these contexts.

O'zbek tili lug'atlarida leksik munosabatli so'zlar, xususan, qism-butunlik (meronim/partonim) munosabatli leksemalarning lug'atlarda berilish holatlari mavjud emas. Shu sababli, o'zbek tadqiqotchilarimiz so'nggi o'n yillikda kompyuter lingvistikasi sohasiga doir ko'plab ilmiy tadqiqotlar nashr etilgan, xususan, A.Po'latov, S.Muhamedova, A.Rahimov, Z.Xolmanova, N.Abduraxmonova kabi olimlarning sohaga doir o'quv darslik va qo'llanmalari chop etgan bo'lsalar²², aynan B.Qilichev, J.Jumabayeva hamda A.Eshmuminovlarning monografiya va avtoreferatlari hozirgi so'z munosabatlarning xususan: partonim, meronim va graduonomik so'zlarning lug'atlarda ifodalanish o'rinlarini belgilab bergan bo'lsalar, A.Eshmuminovning "O'zbek tili korpuslari uchun taksonomik va meronimik munosabatli leksemalar lingvistik bazasini shakllantirish" avtoreferati meronim(qism-butun)lilarning korpuslarda leksik-semantik izohlanish xususiyatlarini belgilab berish uchun asosiy baza

hisoblanadi. O'zbek tili elektron korpusi va lingvistik resurslar: Ushbu loyha o'zbek tilining boy leksikasini o'z ichiga olgan lug'atlar, tezauruslar va o'quv lug'atlarini taqdim etadi.

1-diagramma



Bu tahlillardan ko'rinadiki meronimik qismlilar uy-ro'zg'or anjomlari misolida o'zbek tili lug'atida semantik jihatidan leksikografik xususiyatlari kengroq, ingliz tilida zamonaviy texnik taraqqiyoti natijasida o'z texnik maishiy nomiga ega holonimik va meronimik lug'aviy atamalarni ko'rish mumkin.

Xulosa: Yuqoridagi tahlillardan ko'rinadiki, meronimlarning elektron korpuslardagi taqdimoti ularning semantik va funksional xususiyatlarini yanada chuqurroq o'rganishga imkon beradi. Ingliz va o'zbek tillarida meronimik munosabatlarning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash orqali leksik tizimning ichki tuzilishi yoritiladi. Korpus materiallari asosida olib borilgan tadqiqotlar meronimlarning qo'llanish doirasini aniqlash, ularning tarjimashunoslik va leksikografiyadagi ahamiyatini belgilashda muhim manba hisoblanadi. Shu bois meronimlarni elektron korpuslarda izchil tadqiq etish lingvistik nazariya va amaliyot uchun dolzarb masalalardan biridir.

References:

Используемая Литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Eshmominov., O'zbek tili korpuslari uchun taksonomik va meronimik munosabatli leksemalar lingvistik bazasini shakllantirish. -Monografiya., -Termiz.-2023., b.93
2. A.Sh.Sobirov - Tilshunoslik va adabiyotshunoslik nazariyasi muammolari.
3. B.Qilichev " Leksikada So'zlararo Butun-Bo'lak Munosabatlar", Monografiya, Toshkent-2019., 4-5 p.
4. H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T.: "Talqin"-2005

5. Mustafaeva S.U.-“ Lexicographic interpretation of meronyms in Uzbek and English languages”.- International scientific and practical conference “The role of women in the development of science and the spiritual and educational sphere: problems and solutions”/ <https://doi.org/10.5281/zenodo.14990069>
6. Mustafaeva S.U.-“Uzbek and English dialects are used as examples to illustrate the problems with vocabulary creation in meronymy”.-Article; American Journal of Education and Evaluation Studies, Vol.2, No.5 (May, 2025), 1 E-ISSN: 2997-9439
7. O.Materinska — Semantic relation of meronymy in languages of different structure(case study of semantics of body part names); Taras Shevchenko National University of Kiyev; Article. -2019., p — 256
8. Д.А.Колодько. – Меронимические отношения как проявление системности лексики.: аспирант кафедры славянских языков НПУ имени М.П.Драгоманова. // Русский язык в школе. – 1971. – № 2.
9. Захаров В.П. Корпусная лингвистика. Учебно-методическое пособие. – Санкт-Петербург, 2005. –3.с
10. Н. Кузьмина “Meronymic Structures for Names denoting Parts of Living Beings in English” ., Minsk State Linguistic University.
11. Никитин, М.В.- Основы лингвистической теории значения. Москва: Высшая школа. 1988.
12. Э.Бегматов, Ҳ.Неъматов, Р.Расулов.-Лексик микросистема ва унинг тадқиқ методикаси (систем лексикология тезислари)//Ўзбек тили ва адабиёти. 1989, 6-сон, 35-40 б.
13. https://api.scienceweb.uz/storage/publication_files/1535/12165/64db3b7cc6ac6
14. <https://cyberleninka.ru/article>
15. <https://bibliotekanauki.pl/articles/2117902.pdf>
16. <https://www.researchgate.net/publication/334309725>
17. <https://semantjournals.org/index.php/AJEES/article/view/1636>
18. http://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0068/68_i_20250307_211356_4.14.pdf